

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 483 sahifa.

2025-yil, 11-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI	416
Sayipov Begzod Rahimovich	
TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI	422
Sadikov Iskandar Gayratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	427
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	



MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	433
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
TOSHKENT SHAHRIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGI TAHLILI	438
Soipov Boburmirzo Nosirjon o'g'li	
РОЛЬ ЖИЛИЩНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ МЕЗОУРОВНЯ	446
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
TO'QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBALARINING ZARURLIGI	454
Abdullayev Dostonbek G'ofurjon o'g'li	
TURISTIK KLASSTERLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	458
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI	462
Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi	
XIZMATLAR SEKTORIDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI QONDIRISH MEXANIZMLARI	467
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	472
Базаров Бердымурад Улугмуродович, Атавуллаева Саида Джумабекмуродовна	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	478
Ho'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	



TURIZM SOHASIDA KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI

Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li

Tadqiqotchi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

E-mail: xboburr@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7382-8181

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Kadrlar salohiyati turizm xizmatlarining raqobatbardoshligi, sifat ko'rsatkichlari va innovatsion rivojlanishining muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqotda inson kapitali nazariyasi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va zamonaviy menejment konsepsiyalari asosida turizm korxonalarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish mexanizmlari o'rganilgan. Ilmiy natija sifatida kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy va iqtisodiy omillarini integratsiyalashgan model shaklida ishlab chiqish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: turizm sohasi, kadrlar salohiyati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, inson kapitali, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, raqamli ta'lim, innovatsion rivojlanish, xizmat sifati, malaka oshirish, rag'batlantirish tizimi.

Abstract: This article analyzes the organizational-economic mechanisms of enhancing human capacity in the tourism sector. Human capacity is regarded as a key factor in the competitiveness, service quality, and innovative development of tourism services. The study examines the mechanisms of training, retraining, and motivating personnel in tourism enterprises based on the theory of human capital, the competency-based approach, and modern management concepts. As a scientific outcome, it is proposed to design an integrated model of organizational and economic factors for increasing human capacity.

Key words: tourism sector, human capacity, organizational-economic mechanism, human capital, competency-based approach, digital education, innovative development, service quality, advanced training, incentive system.

Аннотация: В статье анализируются организационно-экономические механизмы повышения кадрового потенциала в сфере туризма. Кадровый потенциал рассматривается как ключевой фактор конкурентоспособности, качества и инновационного развития туристических услуг. В исследовании изучены механизмы подготовки, переподготовки и мотивации персонала туристических предприятий на основе теории человеческого капитала, компетентного подхода и современных концепций менеджмента. В качестве научного результата предлагается разработка интегрированной модели организационных и экономических факторов повышения кадрового потенциала.

Ключевые слова: туристическая сфера, кадровый потенциал, организационно-экономический механизм, человеческий капитал, компетентный подход, цифровое образование, инновационное развитие, качество услуг, повышение квалификации, система стимулирования.

KIRISH

Jahon turizm industriyasi hozirgi kunda global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, yalpi ichki mahsulotda 10 foizdan ortiq ulushni tashkil etmoqda. Turizm xizmatlari hajmining o'sishi, xalqaro sayohatlar geografiyasining kengayishi va raqamli platformalarning joriy etilishi bu sohada yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi kadrlar salohiyatini talab etmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasida, xususan, Singapur, Italiya va Ispaniyada turizm sohasidagi muvaffaqiyat bevosita inson kapitalining sifat darajasi va xizmat madaniyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu mamlakatlarda kadrlar tayyorlash tizimi davlat siyosati darajasida tartibga solinadi, soha xodimlarining doimiy malaka oshirish kurslari, turizm menejmenti va servis sifatida innovatsion ta'lim dasturlari joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham turizm milliy iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Turizm to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlash hamda raqamli turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kadrlar salohiyatini o'rganish masalasi, avvalo, inson kapitali nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu yondashuv XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G. Bekker, T. Shults va S. Kuznets tomonidan shakllantirilgan. Ularning tadqiqotlarida inson kapitali ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida baholanadi va uni rivojlantirish investitsiya kiritish orqali iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

Turizm sohasi kontekstida esa kadrlar salohiyati faqat bilim va ko'nikmalar bilan emas, balki servis madaniyati, muloqot ko'nikmalari va innovatsion fikrlash bilan ham belgilanadi. Xalqaro tadqiqotlarda turizm xizmatlarining sifat darajasi xodimlarning shaxsiy kompetensiyalari, motivatsiyasi va xizmat madaniyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy menejment fanida muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, xodimlarning samarali faoliyat yuritishi ularning bilim va tajribasidan tashqari, shaxsiy fazilatlar, muloqot qobiliyati hamda psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Bu, ayniqsa, turizm sohasida – ya'ni mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'ladigan xizmat turlarida – dolzarbdir.

O'zbekiston olimlari tomonidan so'nggi yillarda turizm sohasida kadrlar tayyorlash va ularning salohiyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. A. Vahobov, B. Xodjayev, M. Shukurov, Sh. Toshboevlarning ishlarida turizm sohasida mehnat resurslarining sifat tarkibi, xizmatlar sifati va innovatsion yondashuvlarning roli yoritilgan.

B. Xodjayev o'z tadqiqotlarida turizm korxonalarida kadrlar tayyorlash tizimi, malaka oshirish kurslari va kadrlar rotatsiyasi orqali xizmat sifatini oshirish mexanizmlarini ko'rsatgan. M. Shukurov esa turizm inson kapitaliga investitsiya kiritishning iqtisodiy samaradorligini aniqlab, bu jarayonning kadrlar raqobatbardoshligiga ta'sirini baholagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib, ularni milliy amaliyotga moslashtirishdan iborat. Tadqiqotda nazariy, empirik, kompleks tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Xususan, Singapur, Ispaniya, Turkiya va Janubiy Koreya tajribalari tahlil qilinib, O'zbekiston turizm sohasi bilan solishtirildi. Natijada kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy va iqtisodiy omillarini birlashtiruvchi konseptual model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirish masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Soha xodimlarining malaka darajasi, til bilimi, servis madaniyati va raqamli kompetensiyalari turizm xizmatlari sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

1-jadval. Turizm sohasida kadrlar salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar

№	Omil nomi	Asosiy mazmuni	Amaliy ta'siri	O'zbekiston sharoitidagi holat
1	Ta'lim tizimi	Turizm sohasiga mos kadrlar tayyorlash, nazariya va amaliyot uyg'unligi	Malakali mutaxassislar yetishadi, xizmat sifati oshadi	Nazariy ta'lim kuchli, lekin amaliy ko'nikmalar zaif
2	Malaka oshirish tizimi	Xodimlarni qayta tayyorlash va doimiy o'qitish	Zamonaviy talabga mos kadrlar shakllanadi	Kurslar soni va qamrovi cheklangan
3	Rag'batlantirish mexanizmi	Ish haqi, mukofot, kasbiy o'sish imkoniyatlari	Kadrlarning sadoqati va motivatsiyasi ortadi	Moliyaviy rag'batlar tizimi sust
4	Raqamli kompetensiyalar	IT, onlayn marketing, CRM tizimlaridan foydalanish	Xizmatlar tezligi va mijoz qoniqishi oshadi	Raqamli savodxonlik yetarli emas
5	Innovatsion yondashuvlar	Servis, menejment va boshqaruvdagi yangiliklarni joriy etish	Xizmat sifati va raqobatbardoshlik oshadi	Innovatsiyalar joriy etilishi sekin



“Turizm sohasida kadrlar salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar” jadvali tahlili shuni ko’rsatadiki, kadrlar salohiyatining rivojlanishi ko’p omilli jarayon bo’lib, uning muvaffaqiyati tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion omillar uyg’unligiga bog’liqdir.

Birinchidan, ta’lim tizimi turizm sohasida kadrlar tayyorlashning poydevori hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimlar yetarlicha berilayotgan bo’lsa-da, amaliy mashg’ulotlar va soha bilan bevosita integratsiya darajasi past. Turizm korxonalari ehtiyojiga mos o’quv dasturlari va malaka standartlarining yetarli ishlab chiqilmagani natijasida ta’lim tizimi bilan ishlab chiqarish o’rtasida tafovut yuzaga kelmoqda. Shu sababli “ta’lim – amaliyot – ish o’rni” zanjiri mexanizmini mustahkamlash muhimdir.

Ikkinchidan, malaka oshirish tizimi turizmga doimiy rivojlanishni ta’minlaydigan mexanizmdir. Bu tizim orqali xodimlar sohadagi yangi texnologiyalar, xalqaro servis standartlari, onlayn rezervatsiya tizimlari va mijozlar bilan ishlash madaniyatini o’zlashtiradi. Ammo O’zbekiston sharoitida malaka oshirish markazlari soni kam, ularning faoliyati ko’p hollarda bir martalik kurslar bilan chegaralanadi. Zamonaviy talab shundan iboratki – malaka oshirish jarayoni uzluksiz, bosqichma-bosqich va natijaga yo’naltirilgan bo’lishi zarur.

Uchinchidan, rag’batlantirish mexanizmi xodimlarning motivatsiyasini belgilovchi asosiy iqtisodiy omildir. Turizmga xizmat sifatining 70–80 foizi xodimlarning kayfiyati, mehnatga bo’lgan munosabati va ishdan qoniqish darajasiga bog’liq. Ammo O’zbekistonda rag’batlantirish tizimi, ayniqsa, xususiy sektor korxonalarida to’liq shakllanmagan. Moddiy mukofot, kasbiy o’sish va ijtimoiy kafolatlarni o’z ichiga olgan kompleks motivatsiya tizimini yaratish zarur.

To’rtinchidan, raqamli kompetensiyalar turizmning yangi davrini belgilab beruvchi omil bo’lib, onlayn bronlashtirish, e-visa, CRM tizimlari va raqamli marketing sohaslarida ishlay oladigan mutaxassislar bozor ehtiyojining asosiy qismini tashkil etadi. Afsuski, hozirgi paytda turizm xodimlarining ko’pchiligi raqamli savodxonlik darajasi pastligi sababli raqamli platformalardan to’liq foydalana olmaydi.

Beshinchidan, innovatsion yondashuvlar – bu kadrlar salohiyatining yangi bosqichi. Servis sifati, mijozlar bilan aloqalarni boshqarish (CRM), ekoturizm, smart-turizm va virtual turizm kabi yo’nalishlarda innovatsion fikrlashni talab etadi. Xodimlar o’rtasida yangilikka ochiqlik va o’qishga tayyorlik madaniyatini shakllantirish zarur.

“Xalqaro tajriba asosida kadrlar salohiyatini oshirish mexanizmlarini solishtirma tahlili” jadvalidan ko’rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylangan. Har bir mamlakatda bu jarayon turlicha tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi, ammo umumiy jihat – inson kapitaliga investitsiya kiritish va soha ehtiyojlariga mos kompetensiyalarni shakllantirishdir.

Singapur tajribasi “SkillsFuture” dasturi orqali butun turizm sohasini qamrab oluvchi kadrlar rivoji tizimini yaratgan. Har bir xodim o’z malakasini oshirish uchun davlat grantidan foydalanadi. Bu tizim orqali malaka oshirish so’rov asosida emas, balki rejalashtirilgan shaklda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv O’zbekiston uchun dolzarb, chunki davlat tomonidan kadrlar malakasiga yo’naltirilgan grant tizimini joriy etish sohani sifat jihatidan o’zgartiradi.

2-jadval. Xalqaro tajriba asosida kadrlar salohiyatini oshirish mexanizmlarini solishtirma tahlili

Mamlakat	Tashkiliy mexanizm	Iqtisodiy mexanizm	Amaliy natijalar	O’zbekiston uchun moslashtirish imkoniyati
Singapur	“SkillsFuture” dasturi asosida turizm kadrlarini doimiy qayta o’qitish	Davlat subsidiyasi va grant tizimi	Kadrlar raqobatbardoshligi oshgan	Grant tizimini bosqichma-bosqich joriy etish mumkin
Ispaniya	Turizm universitetlari va amaliyot bazalari integratsiyasi	Turizm korxonalarining ta’limga investitsiyasi	Ta’lim–ishlab chiqarish aloqasi mustahkam	Universitet–amaliyot bazalarini kengaytirish lozim
Janubiy Koreya	“Digital Skills Program” orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish	Raqamli startaplar va innovatsion markazlarga soliq imtiyozlari	Servis raqamlashtirilgan, xizmat sifati yuqori	Raqamli turizm akademiyasini yaratish zarur
Turkiya	Xususiy sektor ishtirokida turizm kadrlarini tayyorlash markazlari	Davlat–xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	Kadrlar eksporti (xalqaro ishchi kuchi) kuchaygan	DXSh asosidagi o’quv markazlarini tashkil etish mumkin
O’zbekiston	Turizm universitetlari, “Ipak yo’li” xalqaro universiteti, malaka oshirish markazlari	Qisman davlat byudjeti, cheklangan grant tizimi	Sifatli kadrlar yetishmovchiligi mavjud	Kompleks iqtisodiy–tashkiliy model ishlab chiqish zarur



Ispaniya tajribasi turizm ta'limi va amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'ygan. Turizm universitetlari bevosita mehmonxona, turoperator va transport kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlaydi. Talabalar o'qish jarayonida amaliy ish tajribasini oladi. O'zbekiston uchun bu model "dual ta'lim" shaklida tatbiq etilishi mumkin.

Janubiy Koreya tajribasining o'ziga xos jihati – raqamli kompetensiyalarga e'tibor. "Digital Skills Program" orqali barcha soha xodimlari raqamli xizmatlar va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan ishlashni o'rganadi. Bu tajriba O'zbekistonda "Raqamli turizm akademiyasi" yoki "Smart Tourism Center" kabi platformalarni yaratish uchun muhim asos bo'lishi mumkin.

Turkiya tajribasi davlat–xususiy sheriklik (DXSh) asosida ishlaydi. Turizm sohasidagi o'quv markazlari xususiy sektor bilan hamkorlikda tashkil etiladi, bu esa ta'lim sifatini oshirish va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida ham xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish kadrlar salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirish mamlakatning raqobatbardosh turizm industriyasini shakllantirishda strategik omil hisoblanadi. Xizmatlar sifati, mijozlar qoniqishi va turistik mahsulotning xalqaro bozorlardagi raqobat darajasi bevosita inson kapitalining sifatiga bog'liqdir.

O'zbekiston tajribasida kadrlar tayyorlash tizimi mavjud bo'lsa-da, u amaliyot bilan yetarli darajada integratsiyalashmagan, malaka oshirish jarayoni uzluksiz emas va rag'batlantirish mexanizmlari to'liq shakllanmagan. Shu sababli, sohada mavjud tizimni tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar birligida takomillashtirish zarur.

Tashkiliy mexanizm sifatida ta'lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, turizm korxonalari ishtirokida "dual ta'lim" tizimini kengaytirish, raqamli o'qitish platformalarini joriy etish va kompetensiya standartlarini ishlab chiqish zarur. Iqtisodiy mexanizm sifatida esa davlat grantlari, subsidiyalar, xususiy sektor investitsiyalari va rag'batlantiruvchi soliqqa oid imtiyozlarni tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro tajriba (Singapur, Ispaniya, Janubiy Koreya, Turkiya) tahlili shuni ko'rsatadiki, kadrlar salohiyatini rivojlantirishning eng samarali yo'li — uzluksiz ta'lim, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy rag'bat tizimlarini uyg'unlashtirishdir. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali turizm sohasining kadrlar bazasini mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro bozorda mamlakatning turizm imijini kuchaytirish mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy–iqtisodiy mexanizmi quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- Ta'lim – amaliyot – ish joyi uzluksiz zanjirini yaratish;
- Raqamli ta'lim va innovatsion trening platformalarini keng joriy etish;
- Xususiy sektor ishtirokida malaka oshirish markazlarini rivojlantirish;
- Davlat tomonidan moliyaviy rag'bat va grant tizimlarini kengaytirish;
- Kadrlar salohiyatini baholashning ilmiy asoslangan indikator tizimini joriy etish.

Mazkur yo'nalishlarni amaliyotga tatbiq etish turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi hamda O'zbekistonning xalqaro turizm maydonidagi mavqei yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — Chicago: The University of Chicago Press, 1994.
2. Schultz, T. W. Investment in Human Capital. — The American Economic Review, Vol. 51, No. 1, 1971.
3. Boyatzis, R. E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. — New York: John Wiley & Sons, 1982.
4. Spencer, L. M., & Spencer, S. M. Competence at Work: Models for Superior Performance. — New York: Wiley, 1993.
5. Baum, T. Human Resource Development for Tourism: A Global Perspective. — Tourism Management, Vol. 28, No. 6, 2007.
6. Cooper, C., & Fletcher, J. Tourism: Principles and Practice. — 6th ed. — Harlow: Pearson Education, 2017.
7. OECD. Tourism Trends and Policies 2022. — Paris: OECD Publishing, 2022.
8. UNWTO. International Tourism Highlights 2023. — Madrid: World Tourism Organization, 2023.
9. Singapore Tourism Board. SkillsFuture for Tourism Professionals: Annual Review 2021. — Singapore, 2021.
10. Korea Tourism Organization. Digital Skills and Tourism Workforce Development Report 2020. — Seoul, 2020.
11. Vahobov, A. V. Turizm sohasida innovatsion rivojlanishning iqtisodiy asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
12. Xodjayev, B. T. Turizm korxonalarida kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy mexanizmlari. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
13. Shukurov, M. M. Inson kapitaliga investitsiya kiritishning iqtisodiy samaradorligi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.



14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5611-son Farmoni “Turizmni rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida”. — Toshkent, 2018.: <https://lex.uz/docs/-4143188>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4861-son Qarori “Turizm sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. — Toshkent, 2020.: <https://lex.uz/uz/docs/-5044682>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-son Farmoni “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi. — Toshkent, 2020.: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
